



ISSN: 3060-4613



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,  
5-iyun, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lif universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarkand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rindosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
Xasanboy U. Abdusamatov	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili .....	26
Jalilov Nodirjon Azamatovich	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
G'ayibova Nargiza Anorbayevna	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari .....	33
Hakimova Gulmira To'xtatoshevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri .....	41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников .....	44
Умрихина Виктория Игоревна	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода .....	52
Ахунова Умида Ойбековна	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni .....	55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich	
Inklyuziv ta'lim sharoitiда imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va matabning roli .....	63
Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход .....	67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
O'yinning bola faoliyatasi sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
Otasheva Lola Shoto'rayevna	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari .....	78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Guishoda Maxmudjonovna	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limgning o'rni .....	81
B. Xusniddinova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish .....	85
Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi .....	89
Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna	
Methodology of Teaching English to Preschool Children .....	96
Khurshida Tojmurodova	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyatি..	100
Ch. B. Nalibayeva	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari .....	103
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni .....	106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari .....	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtaida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar .....	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari .....	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiylasarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish .....	126
Muxlisa Satriddinovna Muhibdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi .....	132
Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari.....	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiylasarlari kamaytirishda o'yinlarning o'rni.....	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishslash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati .....	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Talim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruving qiyosiy tahlillari .....	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta'limga muassasalarida pedagoglarning boshqaruvin malakasini rivojlantirish yo'llari .....	153
Z. M. Zarifova	

# RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BO'LGAN BOLALARНИ IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASHDA INKLYUZIV TA'LIMNING O'RNI

B. Xusniddinova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
Logopediya kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularni sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitish orqali ijtimoiy hayotda munosib o'rin egallashiga qaratilayotgan e'tibor yorilgan. Inklyuziv ta'lif tizimi orqali nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga umumiy tavsif berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lif, o'quvchilar, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy hayot, sog'lom bolalar, jamiyat.

**Abstract:** This article provides a general overview of children with disabilities in Uzbekistan and the conditions created for them. It emphasizes the significant attention being paid to their integration into social life by educating them alongside healthy children within the framework of inclusive education.

**Key words:** inclusive education, students, children with disabilities, social life, healthy children, society.

**Аннотация:** В данной статье представлена общая характеристика условий, создаваемых в Республике Узбекистан для детей с ограниченными возможностями. Особое внимание уделено вопросам их интеграции в социальную жизнь посредством инклюзивного обучения совместно со здоровыми сверстниками. Раскрывается значимость инклюзивного образования в процессе социальной адаптации детей с особыми образовательными потребностями.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, учащиеся, дети с ограниченными возможностями, социальная жизнь, здоровые дети, общество.

## KIRISH

Bugungi kunda Respublikamiz miqyosida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha islohotlarning zamirida, eng avvalo, yosh avlodning barkamol shaxs sifatida kamol topishi, hech kimdan kam bo'lmay ulg'aishi hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishi kabi maqsadlar mujassam. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan, rivojlanishda nuqsoni mavjud, ota-onha qaramog'isiz qolgan yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish har doim jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida, mamlakatimizda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, zarur shart-sharoitlarni yaratish, turmush faoliyatidagi cheklavlarni bartaraf etish hamda ular uchun sifatli ta'lif tizimini yo'nga qo'yish borasida qator muhim ishlarni amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2007-yilda "O'zbekistonda inklyuziv ta'lif" loyihasi amalga oshirilgan. Ushbu loyihsada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, shuningdek, bir qator mintaqaviy markazlar – Navoiy shahridagi "Umr" imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarcand shahridagi "Hayot" nogironlarga yordam markazi, Jizzaxdagi "Istiqlolli avlod" markazi, Qarshidagi "Umid" tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash markazi, Termizdagi "Imkon" markazi, Qo'qondagi "Ziyo" ijtimoiy yordam markazi va boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Mazkur loyihsada Shvetsariya elchixonasi ham ishtirot etgan.

Loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarcand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro va Urganch shaharlari joylashgan ayrim maktabgacha ta'lif muassasalari, umumiy o'rta maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarida imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda, inklyuziv texnologiyalar asosida ta'lif-tarbiya olish imkoniga ega bo'ldilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga faol qo'shish, eng avvalo, ularning salomatligini tiklash hamda ta'limga olish huquqlarini to'liq ta'minlash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'limga" loyihasi asosida tizimli ishlar davom ettirilmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'limga imkoniyatlaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'limga sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, bu tizim nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy integratsiya tamoyillariga asoslanadi. UNESCO tomonidan 1994-yilda e'lon qilingan Salamanca deklaratasi barcha bolalar uchun teng ta'limga imkoniyatlarini ta'minlashni belgilab bergan. Muminova, Shomahmudova va Ahmedova tomonidan yozilgan "Inklyuziv ta'limga" qo'llanmasida O'zbekiston sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarning moslashuvi, oilaviy muhit va ta'limga strategiyalari yoritilgan. Rossiyalik olimlar V.I. Lubovskiy va L.A. Yasyukova esa imkoniyati cheklangan bolalarga individual yondashuv va maxsus metodikalarni ishlab chiqqan.

Mazkur masala G'arb tadqiqotchilar tomonidan ham keng yoritilgan bo'lib, Mel Ainscow va Tony Boothning "Index for Inclusion" asari inkluzivlik mezonlarini ta'limga muassasalarida amaliy joriy etish imkoniyatlarini taqdim etadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga davlat darajasida rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda "Alovida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-sonli<sup>1</sup> qaror qabul qilingan bilan belgilangan. Khusniddinova B.K. o'z tadqiqotlarida logoped pedagoglarning kasbiy va axloqiy kompetensiyasi inklyuziv ta'limga sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda ko'rsatib bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekistonning turli hududlaridagi umumta'limga maktablarida olib borilgan kuzatuv, so'rovnama va intervylular orqali to'plandi. Olingen ma'lumotlar sifatli tahlil usullari asosida, jumladan, kontent tahlil va tematik guruhash orqali tahlil qilinib, inklyuziv ta'limga amaliy holati va samaradorligi aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'limga – bu barcha bolalarning maxsus ta'limga olish ehtiyojlarini qondirish va ularning individual imkoniyatlaridagi farqlarni inobatga olib holda ta'limga muassasalarida ilm olishda teng huquqqa ega bo'lishlarini ta'minlovchi ta'limga shaklidir. Inklyuziv ta'limga maktabgacha ta'limga muassasalari, maktablar hamda kollejlarda tashkil etilgani orqali imkoniyati cheklangan bolalarga bo'lgan munosabat ijobjiy tomonga o'zgarayotganini kuzatish mumkin. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limga umumta'limga maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarga barcha tadbirlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Natijada, ular jamiyatdan ajralib qolmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ishlab chiqilgan inklyuziv ta'limga strategiyasi o'qishning uzluksiz davom etishini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash kabi izchil tizim, ota-onalarga imkoniyati cheklangan farzandlarini umumta'limga maktablariga hamda oliy ta'limga muassasalariga ishonch bilan yuborishlariga asos yaratadi.

Inklyuziv ta'limga o'quvchilarning jismoniy, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olib holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda o'qitilishini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limga amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun kamsitishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- ta'limga jarayonining barcha ishtirokchilarida alovida ta'limga ehtiyojlarini bo'lgan o'quvchilarga nisbatan bag'ri-kenglik munosabatini shakllantirish;
- sog'lom bolalar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlanish;
- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'limga standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'limga dasturlarini o'zlashtirish imkonini yaratish;
- o'quvchilarning emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyati, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini har tomonlarga rivojlanish;
- alovida ta'limga ehtiyojlarini bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat berish, ota-onalarning pedagogik texnologiyalar, ta'limga-tarbiya usullari va vositalardan xabardorligini oshirish va psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alovida ta'limga ehtiyojlarini bo'lgan bolalarga ta'limga-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5044711>.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lif muassasasiga qadam qo'ygan zahoti turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular alohida e'tibor va doimiy pedagogik yordamga muhtoj bo'ladilar. Shu sababli har bir maktabda ular uchun alohida shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Inklyuziv ta'lif jarayonida nogironligi bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lif oladilar. Bu esa ularning psixologik holatini barqarorlashtiradi.

Biroq, imkoniyati cheklangan bolalarning faqat o'zlarini kabi bolalar bilan bir sinfda ta'lif olishlari ularning jamiyatga moslashuvchanligini cheklashi, ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ularni sog'lom bolalar bilan aralash sinflarda o'qtish tavsija etiladi. Ta'lif jarayoni davomida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasiga qarab, moslashtirilgan (cheklangan) darslar tashkil etilishi lozim. Bu darslar umumiy o'rta ta'lif mazmuniga muvofiq bo'lishi shart.

Shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur. Bu holatda ta'lif jarayoni individuallashtiriladi va zaruratga ko'ra uzaytirilgan muddatlarda tashkil etiladi. Masalan, ko'zi ojiz bolalar uchun to'qqiz yillik umumiy ta'lif dasturi o'n yil davomida amalga oshirilishi mumkin. Harakat-tayanch tizimi yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun esa ta'lifning maqbul variantlari asosida darslar tashkil etiladi.

Ilgari imkoniyati cheklangan bolalar ko'p hollarda uy sharoitida alohida ta'lif olgan. Bu holat ularning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, mustaqil hayotga tayyorgarligini susaytirgan. Inklyuziv ta'lif tizimi bu muammolarga yechim bo'lib xizmat qildi. Bunday bolalarni umumta'lif muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili mavjud:

Imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birga ijtimoiy faoliyatda ishtirok eta oladi.

Bunday integratsiya sog'lom bolalarda ijtimoiy tenglik, bag'rikenglik, mehr-shafqat, e'tibor kabi ijobjiy faziatlarni shakllantiradi, imkoniyati cheklangan bolalar esa o'zlarining jamiyatda teng huquqli ekanliklarini his etadilar.

Inklyuziv ta'lif tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish ota-onalar, pedagoglar, maxsus soha mutaxassislari va mahalla bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim. Maxsus pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalar quyidagi toifalarga bo'linadi:

- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi, kech eshitish nuqsoni paydo bo'lganlar);
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'r, zaif ko'rvuchilar);
- aqliy rivojlanishida cheklovga ega bo'lgan bolalar;
- nutqiy rivojlanishida nuqsoni bo'lganlar;
- harakat-tayanch tizimida muammolari mayjud bolalar;
- psixik rivojlanishida sustlik kuzatilgan bolalar;
- bir nechta nuqsoni mujassam ko'r-kar-soqov bolalar;
- kompleks nuqsonli bolalar;
- autizm spektriga mansub bolalar.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday farzandni imkoniyati cheklangan deb baholash mumkin emas. Masalan, agar bolaning chap qulog'i eshitib, o'ng qulog'i eshitmasa, bu holat uning intellektual yoki jismoniy rivojlanishiga to'laqonli ta'sir qilmasa, u imkoniyati cheklangan toifaga kiritilmaydi. Yoshi katta kishilarda vaqt o'tishi bilan yuzaga keladigan ayrim nuqsonlar ham ularni rasmiy ravishda nogironlar qatoriga qo'shishga asos bo'la olmaydi.

Ko'rish funksiyasi bolaning hayotiy faoliyati va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Tiflopedagogika fanida ko'rish nuqsonlari ularning darjasasi va o'quv materialini idrok qilish qobiliyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Ko'r va deyarli ko'r (qisman ko'rvuchi) bolalar – ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,004 gacha bo'ladi. Bunday bolalar deyarli ko'rmaydilar, ular asosan o'quv materialini sezish va eshitish orqali idrok etadilar. Ular Brayl yozuvini tizimi asosida o'qib-yozadilar.

Zaif ko'rvuchi bolalar – ko'rish o'tkirligi korreksiya (ko'zoynak) yordamida 0,06 dan 0,09 gacha bo'ladi. Bunday bolalarda ko'rishda murakkab nuqsonlar kuzatiladi.

O'rta darajadagi zaif ko'rvuchi bolalar – ko'zoynak yordamida ko'rish o'tkirligi 0,1 dan 0,3–0,4 gacha. Ular muayyan sharoitlarda buyumlarni ko'rib idrok etish, erkin o'qish va yozish, katta fazoviy doirada yo'nalish olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ko'z o'tkirligi 0,05 dan 0,4 gacha bo'lgan bolalar maxsus bog'chalar va maktablarda tahsil oladilar. Ushbu ta'lif muassasalarini tamomlagach, ular Respublika ko'rlar jamiyatni qoshidagi muassasalarda ishlashlari, yozuvchi, shoir, o'qituvchi, musiqachi kabi intellektual sohalarda faoliyat yuritishlari mumkin.

Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratilib o'rganiladi:

1. Kar bolalar – tug'ma eshitish qobiliyatidan butunlay mahrum bo'lgan, nutq shakllanmagan go'daklar.
2. Zaif eshituvchi bolalar – eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar.

3. Keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar – nutqi shakllanib ulgurgan, biroq keyinchalik eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar.

Eshitishdagi nuqson, hatto nutq shakllangandan keyin paydo bo'lsa ham, qulqodagi jismoniy nuqson tufayli eshitishda baribir cheklolvar yuzaga keladi.

Zamonaviy ta'lism jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiylashuvi hamda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lism deb nomlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism – imkoniyati cheklangan bolalarning individual xususiyatlari, fikrash va harakat strategiyasini hisobga oлган holda ularning qobiliyatini rivojlanantirishga qaratilgan ta'limgardir.

Bu ta'lism shakli ta'lism muhiti, pedagogik shart-sharoitlar va tarbiya jarayonini bolaning ichki imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bolaning tafakkuri, dunyoqarashi, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu ta'limgni tashkil etishda pedagoglar quyidagi shartlarga qat'iy amal qilishi zarur:

- har bir bolani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'rish;
- bolaning ruhiy holatini to'g'ri baholash va ehtiyojlarini inobatga olish;
- imkoniyati cheklangan bolaga tolerant munosabatda bo'lish;
- uning kuch va qobiliyatlariga ishonch bildirish;
- mustaqil faoliyat va nazorat uchun imkoniyat yaratish;
- ta'limga tazyiqdan voz kechish;
- muvaffaqiyatli ta'lism muhiti yaratish;
- bilimlarni o'zlashtirishda ijodiy va tanqidiy yondashuvni rag'batlantirish;
- yutuq va xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism – imkoniyati cheklangan bolani mavjud tizimga moslashtirish emas, balki uning shaxsiy imkoniyatlarini to'la ochish uchun zarur pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Bu ta'lism jarayonida bola mustaqil bilim olish, o'z fikrini himoya qilish, muammoga ijodiy yechim topish, tanqidiy fikrash ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inklyuziv ta'lism tizimining joriy etilishi ko'plab imkoniyati cheklangan bolalarni faol ijtimoiy hayotga qaytardi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular uchun tashkil etilgan inklyuziv ta'lism dasturi ularni tashqi muhit bilan integratsiyalashuviga, ijtimoiy muloqotga kirishishiga zamin yaratdi, shaxsiy ishonch tuyg'usini mustahkamladi va eng asosiysi – har bir bola singari to'laqonli hayot kechirish huquqiga egaliklarini anglashlariga imkon berdi.

Inklyuziv ta'lism oлган bolalar kelajakda jamiyatda faol ishtirok etishga, mehnat bozorida munosib o'rin egalashga, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erkin bo'lishga intiladilar. Mazkur ta'lism insonlar o'rtasidagi ajralishni emas, balki o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda inklyuzivlik tamoyillariga asoslangan, teng huquqli fuqarolarning uyg'un yashashiga turtki beradi.

### Takliflar:

- Har bir ta'lism muassasasida inklyuziv ta'lism uchun maxsus jihozlangan o'quv muhitini yaratish;
- O'qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirishga yo'naltirilgan maxsus kurslar joriy etish;
- Inklyuziv ta'lism jarayonida psixologik-pedagogik ko'mak xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- Oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ota-onalarga maslahat markazlari tashkil etish;
- Inklyuziv ta'limgni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabr "Ta'lism to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni: <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alovida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-sonli qarori: <https://lex.uz/docs-5044711>.
3. L.R. Muminova, R.Sh. Shomahmudova, Z.M. Ahmedova. Inklyuziv ta'lism o'quv qo'llanma. Toshkent, 2019.
4. D.S. Qahharova. Inklyuziv ta'lism texnologiyasi. Toshkent, 2014.
5. Khusniddinova, B. (2024). Professional Competence and Its Components of the Future Logoped Teacher. American Journal of Advanced Scientific Research, 1(2), 107–108.
6. Khusniddinova, B.K. (2023). Technology of Development of Professional Culture of Future Speech Therapists Based on the Deontological Approach. International Journal of Pedagogics, 3(11), 98–104.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.